

## 1-SINF “ALIFBE” DARSЛИGINI ORFOEPIK O’RGATISH METODIKASI

Abdullayeva Zarnigor

O‘zbekiston –Finlandiya Pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti O’qituvchisi

+998906557035

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Alifbo darslarida o‘quvchilarni didaktik o‘yinlar orqali orfoepiya(to‘g’ri talaffuz)ni o’rgatish hamda zamonaviy metodlardan foydalanishning samarali jihatlari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** orfoepiya, to‘g’ri talaffuz, savod o’rgatish, alifbe davri.

Insoniyat tarixida yuzlab yozuvlar ixtiro qilingan. Zamonlar o‘tishi va jamiyat taraqqiyoti bilan ayrim yozuvlar iste’moldan chiqib ketgan bolsa, ayrimlari yanada takomillashtirilib, qo’llanish doirasi kengaya borgan. Bunga lotin yozuvi asosida yaratilgan zamonaviy alifbolar yaqqol misol.[28-16] Hozirgi kunda biz foydalanayotgan “Alifbe” darsligi yorqinligi, qulayligi va o‘quvchilar uchun mosligi bilan ajralib turadi. “Alifbe” darsligi asosida 4 oy mobaynida o‘quvchilar o‘qish va yozishga o’rgatiladi, o‘qish va yozish ko‘nikmasini egallaydilar.[2] Alifbe o‘quvchilarning birinchi va sevimli kitobidir. Bu kitobdan o‘qishni, yozishni o‘rganib olishadi, shuningdek, qiziqarli topshiriqlarni bajarishadi. Alifbe kitobi o‘quvchilar uchun misoli yo‘lchi yulduz vazifasini bajaradi. Unda tovushlarni o‘rganish oddiylikdan murakkablikka bosqichma-bosqich o‘tish usuli asosida amalga oshirilgan. Bu darslikda mavzularga mos ravishda rangli rasmlar, maqollar, topishmoqlar, she’r va ertaklar, audiomatnlar berilgan, shuningdek ota-onalar uchun ko‘rsatmalar, izohlar keltirilgan. Alifbe ovunchoq yoki maroqli vaqt o’tkazish xususiyatiga ega emas, uning vazifikasi o‘quvchining o‘qish texnikasini to‘g’ri egallashi, o‘zlashtirib olishiga qaratilgan.

Masalan, o‘quvchilar O va T tovushlarining talaffuzi va harf sifatida uning elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib oladilar va qoidalarini o‘rganadilar. O tovushi cho‘ziq talaffuz qilinadi. Shuning uchun u unli tovush hisoblanadi. O‘quvchilarga lablarini biroz oldinga chiqarib talaffuz qilish tushuntiriladi: O-o-o-o.

“O” ning shakli o‘xshaydi,

To’lin oyga, quyoshga.

Velosiped g’ildiragi,

Qovun yoki koptokka.

O‘qituvchi “O” tovushi haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi va uning xususiyatlarini o‘quvchilarga tushintirishi maqsadga muvofiq.

**O o harfi:**

Ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat kabi so‘zlarda orqa qator keng unli kabi talaffuz qilinadi. Boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor, termos kabi o‘zlashma so‘zlardagi unli kabi talaffuz qilinadi. Jannat onalar oyog‘i ostidadur. Quyosh hayot manbai. Meni hamma baholarim yaxshi. Mening sevimli sport

turim boks. Men katta bo'ssam agronom bo'laman. Alifbe kitobi unli harflarni o'rgatish bilan boshlanadi, chunki unli harflarning talaffuzi va yozilishi oson.

"T" tovushi qisqa aytiladi. Shuningdek u undosh tovushdir. Tishlar bir-biriga yaqinlashadi. Havo og'izga kelgach, shovqin bilan talaffuz qilinadi.

Qalpog'i bor boshida "T" ning,  
Qor-yomg'irni pisand qilmaydi.  
Agar uni olib qo'ysangiz,  
Birga o'xshab qolar, bo'lmaydi.

T t harfi tong, tun; butun o'tin, o't kut kabi so'zlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshi kabi talaffuz qilinadi. Tong o'qlar otar....

Biz yuqorida ko'rgan bu ikki tovush alifbening ilk tovushlaridir. Alifbe kitobini o'rganayotgan o'quvchi unli va undosh tovushlarni talaffuz qilish va undagi farqlarni ham o'rganib boradi. Yangi alifbe kitobida har bir mavzuga mos audiomatnlar berilgan bo'lib, bu o'quvchilarning eshitib o'rganish ko'nikmasini shakllanishida yordam beradi. "Oltin tarvuz" audiomatni bilan "O" tovushini o'rganish davomida tanishadilar.

To'g'ri talaffuz nutq madaniyatining muhim belgilaridan biri sanaladi. Adabiy tilda to'g'ri yozish qanchalik muhim bo'lsa, to'g'ri talaffuz ham shunchalik ahamiyatlidir. Shuning uchun ham o'quvchi va talabalarda to'g'ri talaffuz ko'nikmalarining shakllantirilishiga ta'limning barcha bosqichlarida jiddiy e'tibor beriladi. Shuningdek, yuqorida ko'rib o'tgan savod o'rgatish davrida ham orfoepiya(to'g'ri talaffuz)ni o'rgatishga ham katta e'tibor beriladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ravon nutq. Dilfuza Matkarimova.// Boshlang'ich ta'lim. Jurnal, 4-son 2022.
2. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir. -T.: O'zbekiston, 2018, 508 b.
3. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: "Noshir" nashriyoti, 2009, 352 b.
4. . [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
6. Sodiqova M.,O'.Usmonova O'. O'zbek tilining birinchi orfoepik lug'ati. 1977-yil.